


“BAHR AL-ASROR FI MANOQIB AL-AXYOR” ASARINING O‘RGANILISHI

Hafizov Siyovash Oqiljon o‘g‘li,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti
ORCID ID: 0009-0000-0138-5772
e-mail: siyovash.hafizov@mail.ru
https://doi.org/10.66803/2026.1.183

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot Mahmud ibn Valining “Bahr al-asror” asari o‘rganilishiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda XIX asr oxirlaridan XX asr birinchi choragigacha bo‘lgan davrda ushbu asar yuzasidan olib borilgan izlanishlarning qisqacha tavsifi keltirilgan. Tadqiqotning maqsadi ilgarigi olimlarning izlanishlarini ko‘rib chiqish hamda ularning e’tiboridan chetga qolgan jihatlarni aniqlashdan iborat. Olib borilgan izlanishlar natijasida tadqiqotchilar asosan “Bahr al-asror”ning tarix va geografiya qismlarini keng miqyosda o‘rganganliklari aniqlandi. Shuningdek, asarning mazmuni, tuzilishi va qo‘lyozma nusxalarini o‘rganish bo‘yicha ham salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgani ma’lum bo‘ldi. Asarning davlat boshqaruvida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan amirlar biografiyasiga oid hamda foydali qazilmalar va dorivor o‘simliklar haqida bayon qilingan qismlari qisman tadqiq etilganiga amin bo‘lindi. Shu bilan birga asardagi XVI asr oxiri – XVII asr birinchi yarmi Movarounnahr va Xuroson ijtimoiy hayotiga doir ma’lumotlar hamda ma’naviy-ma’rifiy hayotida muhim rol o‘ynagan ulamolar va shayxlar tarjimayi hollariga oid qismlar tadqiqotchilar e’tiboridan chetda qolgani anglashildi. Ushbu tadqiqotda “Bahr al-asror” yuzasidan izlanish olib borgan olimlar asosan asarning qaysi jihatlarini o‘rganishganini aniqlashga e’tibor qaratildi. Bu borada ma’lumotlarni ketma-ket berib borishda davrlashtirish, tadqiqotchilarning ishlarini baholashda tanqidiy va qiyosiy usullardan foydalanildi.

Kalit so‘zlar: *“Bahr al-asror”, Mahmud ibn Vali, Ashtarxoniylar, tarixshunoslik, ijtimoiy-madaniy hayot, Movarounnahr, Xuroson.*

ИЗУЧЕНИЕ ТРУДА «БАХР АЛ-АСРАР ФИ МАНАКИБ АЛ-АХЙАР»

Хафизов Сиёваш Окилджон угли,
базовый докторант Ташкентского государственного университета востоковедения
ORCID ID: 0009-0000-0138-5772
e-mail: siyovash.hafizov@mail.ru

Аннотация. Данное исследование посвящено истории изучения труда Махмуда ибн Вали «Бахр ал-асрар» и представляет собой краткий обзор научно-исследовательских работ, проведенных по данному источнику в период с конца XIX века по первую четверть XX века. Цель исследования заключается в анализе изысканий предшествующих ученых и определении аспектов,

оставшихся вне поля их внимания. В результате проведенного анализа было установлено, что исследователи преимущественно и в широком масштабе изучали историческую и географическую части «Бахр ал-асрар». Кроме того, выявлено осуществление весомых исследований по изучению содержания, структуры и рукописных списков данного сочинения.

Выяснилось, что разделы труда, содержащие биографии эмиров (имеющие важное значение в государственном управлении), а также сведения о полезных ископаемых и лекарственных растениях, были исследованы лишь частично. Наряду с этим установлено, что сведения о социальной жизни Мавераннахра и Хорасана конца XVI – первой половины XVII веков, а также разделы, посвященные биографиям улемов и шейхов, сыгравших важную роль в духовно-просветительской жизни региона, остались без должного внимания исследователей. В настоящей работе основное внимание акцентировано на определении того, какие именно аспекты «Бахр ал-асрар» преимущественно изучались учеными. В процессе последовательного изложения материала использовался метод периодизации, а при оценке трудов исследователей применялись критический и сравнительный методы.

Ключевые слова: *«Бахр ал-асрар», Махмуд ибн Вали, Аштарханиды, историография, социально-культурная жизнь, Мавераннахра, Хорасан.*

STUDY OF THE WORK “BAHR AL-ASRAR FI MANAQIB AL-AKHYAR”

Siyovash O. Hafizov,
Basic doctoral student at Tashkent State University of Oriental Studies
ORCID ID: 0009-0000-0138-5772
e-mail: siyovash.hafizov@mail.ru

Abstract. This study is dedicated to the research history of Mahmud ibn Wali’s work “Bahr al-Asrar”, providing a brief overview of the scholarly investigations conducted on this work from the late 19th century to the first quarter of the 20th century. The purpose of the research is to review the studies of previous scholars and to identify the aspects that have been overlooked. The findings reveal that researchers have primarily studied the historical and geographical sections of “Bahr al-Asrar” on a large scale. Furthermore, significant research has been carried out regarding the content, structure, and manuscript copies of the work.

The study also determined that the sections concerning the biographies of amirs – which hold substantial importance in state administration – as well as those detailing minerals and medicinal plants, have only been partially investigated. Concurrently, it was identified that the data regarding the social life of Transoxiana (Movarounnahr) and Khorasan in the late 16th and first half of the 17th centuries, along with the biographies of scholars and sheikhs who played a crucial role in spiritual and educational life, have remained neglected by researchers. This study focuses on identifying which specific dimensions of “Bahr al-Asrar” were mainly explored by previous scholars. In this regard, periodization was used to present the data sequentially, while critical and comparative methods were applied to evaluate the researchers’ works.

Keywords: *“Bahr al-Asrar”, Mahmud ibn Wali, the Ashtarkhanids, historiography, socio-cultural life, Transoxiana, Khorasan.*

KIRISH

Mahmud ibn Valining “Bahr al-asror fi manoqib al-axyor” (“Oliyjanob kishilarning fazilatlari haqida sirlar dengizi”) asari Ashtarxoniylardan (1601–1756) Balx hukmdori Nadr Muhammadxon (1591–1651; hukmronlik yillari 1606–1642, 1645–1651) topshirg‘iga binoan 1631–1636-yillar oralig‘ida fors tilida yozilgan. Ushbu asar ilohiyot, astrologiya, tarix, geografiya, etnografiya, mineralogiya, tasavvuf, hayvonot va nabotot olamiga doir muhim masalalarni o‘z ichiga oladi. Asar muqaddima, yetti jild va xotima qismlaridan iborat. Har bir jild alohida to‘rt rukndan (jami 28 rukn) tashkil topgan. Hozirgi kungacha I va VI jildlarning jami beshta qo‘lyozma nusxasi aniqlangan. Bulardan to‘rttasi O‘z FA Sharqshunoslik institutida (№1375, №1385, №2372 va №7418) va bittasi Londondagi India Office kutubxonasida (№575) saqlanadi. Ushbu tadqiqotda “Bahr al-asror” asarining yurtimizda va xorijda o‘rganilishiga e’tibor qaratildi. Izlanishlar natijasida Markaziy Osiyo tarixi bo‘yicha muhim ma’lumotlarni o‘zida jamlagan ushbu asar XIX asr oxirlaridan boshlab tadqiqotchilar e’tiborini jalb etganiga guvoh bo‘lindi va uni hozirgacha o‘rgangan olimlar tadqiqotlariga qisqa ekskurs berilib, ularda asarning qaysi jihatlari tahlil qilingani aniqlandi.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligi masalalarini tadqiq etish, xususan, ilmiy jihatdan katta ahamiyatiga ega, lekin nisbatan kam o‘rganilgan tarixiy asarlar, jumladan, “Bahr al-asror” asarini keng ko‘lamda o‘rganish va undagi muhim masalalarni keng ilmiy jamoatchilikka yetkazish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zotan, XX asr ikkinchi yarmida “Bahr al-asror” yuzasidan tadqiqot olib borgan o‘zbek va qozoq olimlari tomonidan, asosan, asarning tarix va geografiyaga oid qismlari o‘rganilgan [Pishulina, 1969; Pishulina, 1983; Akimushkin, 1970]. Movarounnahr, Xuroson, Dashti Qipchoq, Sharqiy Turkiston va Shimoliy Afg‘oniston tarixi va geografiyasiga doir parchalar rus tiliga tarjima qilingan [Ahmedov, 1977; Ahmedov, 1988]. Pokistonlik va afg‘onistonlik olimlar esa asarning ma’lum qismlari matnini tadqiqot qismi bilan birga nashr qilganlar. Xususan, asarning I jildidan dastlabki yuz varaq, VI jildidan Balx tarixiga oid qismni hamda Mahmud ibn Valining Hindiston va Sarandibga sayohati matnlarini e’lon qilganlar [Islam, 1980; Herawi, 1981; Said et al., 1984]. Asardagi ma’lumotlar zamonaviy tarixshunoslik kontekstida yetarli darajada chuqur tahlil qilinmagan hamda manba nuqtai nazaridan to‘liq ochib berilmagan. Tadqiqotchilar asosan asardagi tarix va geografiyaga oid ma’lumtlarni chuqur tadqiq etganlar. Asarda hayvonlar, o‘simliklar, ijtimoiy hayot, mashhur shaxslar biografiyasi haqida keltirilgan ma’lumotlar o‘z izlanuvchilarni kutmoqda.

Mazkur tadqiqot ishining ilmiy yangiligi sifatida “Bahr al-asror” asarini o‘rganishga hissa qo‘shgan olimlarning ilmiy merosi chuqur tadqiq etilib, ular asosan asarning qaysi jihatlariga e’tibor qaratganlari aniqlanganini keltirish mumkin. Olib borilgan izlanishlar natijasida ilgarigi tadqiqotchilar ko‘proq asarni tarix va geografiya kontekstida o‘rganishgani hamda kitobdagi ijimoiy-iqtisodiy tarix, biografiya, foydali qazilmalar, hayvonot va nabotot olamiga doir muhim ma’lumotlar izlanuvchilar e’tiboridan chetda qolganiga guvoh bo’lindi.

Mazkur tadqiqot natijalaridan o‘rta asrlar Markaziy Osiyo tarixini o’rganishda hamda mintaqa tarixshunosligi va manbashunosligi nazariyasini yangi faktlar va uslubiy yondashuvlar bilan boyitishda foydalanish mumkin.

MANBALAR VA METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda XIX asr oxirlaridan bugungi kungacha “Bahr al-asror” asariga oid chop etilgan monografiya, risola, ilmiy adabiyotlar va maqolalar birlamchi manba sifatida tanlab olindi.

Xususan, V.V. Bartold, B.A. Ahmedov, R. Islom, H. Hiraviy, A.K. Alekseev va F.A. Saidovlar tomonidan olib borilgan keng miqyosli tadqiqotlar asos sifatida belgilandi. Shu bilan birga H.C. Ethe, A.Z. Validiy, A.A. Semyonov, B.G‘. G‘ofurov, A.K. Pishulina, M.A. Abdurahimov, T.I. Sultonov, I.G. Nizomiddinov, O.F. Akimushkin, R.D. Mak Chesney, J.A. Burton, M.A. Xon, D. DeWeese, R. Foltz, V.P. Yudin, J.M. Tulibaeva, A. Saidov, A. Idiev, A.Q. Musoev, S.R. To‘raeva, O.O. Po‘latova va boshqalarning monografiya, risola va ilmiy maqolalari o‘rganildi.

Oldingi tadqiqotchilar ishlarini o‘rganishda tarixiy-tizimli va qiyosiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqotchilarning mavzuga yondashuvini aniqlashda tanqidiy usuldan istifoda etildi.

MUHOKAMA

Mahmud ibn Valining “Bahr al-asror” asarini o‘rganish XIX asr oxirlarida boshlangan. Ushbu asar to‘g‘risidagi ilk ma’lumotlarni V.V. Bartold (1869–1930) tadqiqotlarida uchratamiz. Olim 1899-yilda Londonga qilgan safari chog‘ida India Office kutubxonasida mazkur asarning VI jildi to‘rtinchi ruknini №575 raqam bilan saqlanayotgan qo‘lyozma nusxasini aniqlagan. Qo‘lyozmaning nusxalari topilguniga qadar uni Ashtarxoniylar sulolasi tarixiga bag‘ishlangan mustaqil asar, deb tasavvur qilgan [Bartold, 1904, s. 232–233]. U 1902-yil yozida Toshkentga qilgan ilmiy safari mobaynida general Jo‘rabek dodxoh (1840–1906) shaxsiy kollektsiyasini ko‘zdan kechirar ekan “Bahr al-asror”ning VI jildi birinchi, ikkinchi va uchinchi ruknlarini o‘z ichiga olgan qo‘lyozma nusxasiga duch keladi [Bartold, 1965, s. 257]. Ushbu qo’lyozma ayni damda O‘z FA Sharqshunoslik institutidagi Asosiy fondida (AF) №7418 raqami ostida saqlanadi. U mazkur qo‘lyozmani anchayin batafsil o‘rganib, “Turkistonga xizmat safari hisoboti” nomi ostida e’lon qiladi. V.V. Bartoldni asosan asardagi Sharqiy Turkiston to‘g‘risidagi ma’lumotlar qiziqtirgan. U “Bahr al-asror”da XVII asr o‘zbek xonlari saroyidagi rasmiy qabul marosimi haqida keltirilgan ma’lumotlarni ham o‘rgangan. U o‘zbek xonlari saroyidagi rasmiy qabul marosimi haqida bundayin batafsil ma’lumotlar o‘sha davrda yaratilgan boshqa asarlarda yoki Markaziy Osiyoga tashrif buyurgan elchilar esdaliklarida uchramasligini alohida e’tirof etgan [Bartold, 1974, s. 389]. “Bahr al-asror” asari VI jildi to‘rtinchi rukni xotima qismining XVII asr o‘zbek xonlari saroyidagi tartib-qoidalar va marosimlarga doir qismini tabdil va tarjima qilib nashr qilgan [Bartold, 1974, s. 388–399].

“Bahr al-asror”ni birinchilardan o‘rgangan g‘arb olimlaridan biri bu – britaniyalik sharqshunos H.C. Ethe (1844–1917) hisoblanadi. Tadqiqotchi “India Office kutubxonasida saqlanadigan fors tilidagi qo‘lyozmalar” nomli katologining I jildida ushbu asarning India Office kutubxonasida saqlanadigan №575 raqamli qo‘lyozma nusxasining kodikologik belgilariga oid ma’lumot beradi. Unga ko‘ra, mazkur qo‘lyozma saroy kotibi Shoh Qosim tomonidan nasta’liq xatida muallif original nusxasidan ko‘chirilgan. Qo’lyozma jami 409 varaqdan iborat [Ethe, 1903, p. 229–230].

Mahmud ibn Valining “Bahr al-asror” asari ayrim qo‘lyozma nusxalariga doir ilk ma’lumotlarni A.Z. Validiyning (1890–1970) tadqiqotlarida ko‘rishimiz mumkin. 1913-yilning kuzida ilmiy safar bilan Farg‘ona vodiysiga tashrif buyurgan A.Z. Validiy Qo‘qon shahrida joylashgan Qo‘rxona masjidi imomi Mullo Rojiy (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari) shaxsiy kollektsiyasini ko‘zdan kechirish chog‘ida “Bahr al-asror” asari VI jildi ruknlarining parchalarini o‘z ichiga oluvchi qo‘lyozmaga duch keladi [Validov, 1915, s. 306]. B.A. Ahmedov (1924–2002) Validiy ma’lumotlariga asoslanib, ushbu qo’lyozma ayni damda O‘zR FA ShI AFda saqlanayotgan №1385 raqamli qo‘lyozma ekanligini taxmin qiladi [Ahmedov, 1994, b. 231]. [1914-yil yozida Buxoroga tashrif buyurgan A.Z. Validiy Muhammad Xoja (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari) shaxsiy

kollektsiyasida “Bahr al-asror” asari I jildining qo‘lyozma nusxasini uchratadi va Mahmud ibn Vali o‘z asarini yaratishda Hofiz Abru (1362–1430) va Rashididdin Tabib (1247–1318) ma’lumotlariga tayanganini ta’kidlaydi. U asarning muqaddima qismida keltirilgan uning jildlari va ruknlari haqidagi parchani tabdil qilib, chop etadi [Validov, 1915, s. 255–257].

Mahmud ibn Vali “Bahr al-asror” asarini yozishda Hofiz Tanishning (1540–1589) “Abdullanoma” asaridan foydalanganmi? degan savol javob izlagan L.A. Zimin (1886–1920) V.V. Bartolddan farqli o‘laroq “Bahr al-asror” “Abdullanoma”dan mustaqil asar, degan to‘xtamga kelgan. U o‘z fikrini “Bahr al-asror” asari umumiy tarixga, “Abdullanoma” esa bir sulolaning ma’lum bir hukmdoriga bag‘ishlangani, birinchisidagi ma’lumotlar nisbatan qisqa, ikkinchisidagi esa ancha batafsil bayon qilingani bilan izohlagan. L.A. Zimin “Bahr al-asror” asarini Abdullaxon II (1533–1598; hukmronlik yillari 1583–1598) hukmronlik davrining so‘nggi yillari va Abdulmo‘minxonning (1568–1599; hukmronlik yillari 1598–1599) qisqa hukmronlik davri haqida ma’lumot beruvchi ilk birlamchi yozma manba ekanini e’tirof etgan [Umnyakov, 1930, s. 318–319].

“Bahr al-asror” asarining qo‘lyozma nusxalari haqida ma’lumot bergan hamda asardagi Ashtarxoniylar saroyidagi lavozimlar to‘g‘risidagi ma’lumotlaridan foydalangan olimlardan biri bu – A.A. Semyonov (1873–1958) hisoblanadi. U Buxoro xonligidagi lavozimlar va unvonlarni o‘rganishda V.V. Bartoldning “Bahr al-asror” asari asosida o‘zbek xonlari saroyidagi rasmiy qabul marosimlari yuzasidan olib borgan tadqiqotlariga tayangan [Semyonov, 1948, s. 137–153]. 1960-yilda A.A. Semyonov muharrirligida chop qilingan Sharq qo‘lyozmalari to‘plamining V jildida “Bahr al-asror”ning ayni damda O‘zR FA ShI AFda saqlanayotgan №1375, №1385 va №2372 raqamli qo‘lyozmalari haqida ma’lumot beriladi. To‘plamdan Mahmud ibn Vali va uning asarlari, “Bahr al-asror” asarining tuzilishi va uning jildlarida bayon qilingan asosiy mavzular joy olgan [Semyonov, 1960, c. 71–74].

1961-yil Dakkada o‘tkazilgan Pokiston tarixi konfrentsiyasida B.G‘.G‘ofurov (1908–1977) o‘zining “Bahr al-asror” asari tadqiqiga bag‘ishlangan ma’ruzasi bilan ishtirok etadi. Tadqiqotchining mazkur maqolasi oradan besh yil o’tib, “Journal of the Pakistan Historical Society”da nashr qilinadi [Islam, 1980, p. 17]. Unda “Bahr al-asror” asari muallifi, uning Janubiy Osiyoga qilgan sayohati, safar davomida ko‘rgan ajoyibotlariga to‘xtalib, Mahmud ibn Vali singari sayyoh olimlarning Hindiston yarimoroliga qilgan sayohati mintaqa madaniyatini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlangan va Hindistonga qilgan sayohatidan olingan ayrim parchalar rus tiliga tarjimasi keltirilgan [Gafurov, 1966].

XX asr 50-yillaridan boshlab “Bahr al-asror” asari yuzasidan fundamental tadqiqotlar olib borgan tadqiqotchi-olimlardan biri B.A. Ahmedov hisoblanadi. Tadqiqotchi o‘zining “Ko‘chmanchi o‘zbeklar davlati” va “XVII–XVIII asr birinchi yarmida Balx tarixi” nomli monografiyalarining yuzaga kelishida “Bahr al-asror” asari asosiy manbalardan biri bo‘lganini alohida e’tirof etadi [Ahmedov, 1994, b. 231–232]. Tadqiqotchi 1965-yilda chop etilgan “Ko‘chmanchi o‘zbeklar davlati” nomli monografiyasida XIII–XIV asrlarda Dashti Qipchoqdagi siyosiy vaziyat, Abulxayrxon (1412–1468; hukmronlik yillari 1428–1468) boshchiligidagi O‘zbek ulusining tashkil topishi, davlat boshqaruvi haqida ma’lumot berishda bir necha yozma manbalar qatori “Bahr al-asror”dan ham foydalanadi [Ahmedov, 1965]. Oradan biroz vaqt o‘tib Mahmud ibn Vali va uning “Bahr al-asror” asariga bag‘ishlangan kichikroq hajmdagi risolasini e’lon qiladi. Unda asar muallifining hayoti, faoliyati, Hindistonga qilgan sayohati, asarning tuzilishi, mazmuni singari masalalarga to‘xtaladi [Ahmedov, 1966].

B.A. Ahmedov “Bahr al-asror”ning I jildi geografiya qismini chuqur o‘rganib, mazkur jildda kelgan Movarounnahr, Qoshg‘ar, Yettisuv, Dashti Qipchoqning sharqiy qismi va Afg‘oniston tarixiy geografiyasiga doir ilmiy ahamiyatga molik muhim ma’lumotlarni rus tiliga tarjima qiladi. Rus tiliga qilingan tarjima, asar yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar va ko‘rsatkichlar bilan birga 1977-yilda alohida monografiya shaklida nashr qilinadi. Monografiya tadqiqot qismida Mahmud ibn Vali, uning ilmiy merosi, “Bahr al-asror” asarining tuzilishi, mazmuni muallif bayon uslubining o‘ziga xos jihatlari, manbalari va o‘rganilishiga atroflicha to‘xtaladi [Ahmedov, 1977, s. 3–12]. Tadqiqotchi mazkur monografiyani Mahmud ibn Valining boy ilmiy merosini o‘rganish va e’lon qilishga qo‘shilgan birinchi salmoqli hissa ekaniga alohida ishora qiladi [Ahmedov, 1977, s. 3]. Olim bu asarning faqat birinchi jildini o‘rganish bilan cheklanmay, XVII–XVIII asr birinchi yarmi Balx tarixi bo‘yicha olib borgan izlanishlarida asar VI jildi to‘rtinchi ruknining Balx tarixiga bag‘ishlangan qismidan foydalanadi [Ahmedov, 1982]. Keyingi izlanishlarida esa “Bahr al-asror” asari VI jildi to‘rtinchi ruknidan bir necha parchalarning rus tiliga qilingan tarjimalarini e’lon qiladi [Ahmedov, 1988]. Shu bilan birga, asardagi Ashtarxoniylar davrida Buxoro va Balx saroylarida katta mavqega ega bo‘lgan ayrim amaldorlarning tarjimai holiga doir ma’lumotlarni saralab oladi [Akhmedov, 1991, p. 169–171].

XVI–XIX asrlar Buxoro xonligida agrar munosabatlar tarixini tadqiq qilgan M.A. Abdurahimov (1916–1975) “Bahr al-asror” asaridagi yer egaligi, xo‘jalik turlari, ko‘chmanchilarga xos turmush tarzi, davlat amaldorlariga tegishli yerlarda xo‘jalik yuritish singari masalalarni o‘rgangan. Tadqiqotning manbashunoslik qismida “Bahr al-asror” asari qo‘lyozma nusxalari, manbalari, “Abdullanoma” asari bilan o‘xshash jihatlariga to‘xtalgan [Abdurahimov, 1966, s. 16–17]. Buxoro xonligi davlat boshqaruvida qo‘shbegining o‘rni va roli haqida izlanishlar olib borgan tadqiqotchi, ushbu lavozim egalarining saroy rasmiy qabul marosimlaridagi o‘rnini aniqlashda “Bahr al-asror” asariga murojaat qiladi [Abdurahimov, 1974, s. 57].

Pokistonlik tadqiqotchilardan Riyoz al-Islom (1919–2008) “Bahr al-asror”ning sayohatnoma qismini o‘rganishga katta hissa qo‘shadi. U asar haqidagi dastlabki maqolalarida, ushbu kitob bilan Londonda tanishgani va asar unda katta qiziqish uyg‘otganini ma’lum qiladi [Islam, 1966, p. 93]. Riyoz al-Islom XVI–XVIII asrlardagi Hindiston va Eron aloqalarini yoritishda mazkur asardan foydalangan. Olim Mahmud ibn Vali sayohati davomida duch kelgan va o‘z esdaliklarida qayd etgan eng muhim voqealardan biri Balxga qaytish chog‘ida Pushang qal’asi hokimi Sherxon Afg‘on va Qandahor hukmdori Alimardonxon o‘rtasidagi nizoga guvoh bo‘lgani ekanini ta’kidlaydi [Islam, 1970, p. 364]. U mazkur voqea boshqa asarlarda ham uchrashi, ammo hech qaysi bir muallif bu voqeani Mahmud ibn Validek batafsil yoritmaganini qayd etadi. R. Islom Mahmud ibn Valining Hindiston va Sarandibga qilgan sayohatidan ko‘zlagan maqsadi g‘ayritabiiy narsalarni ko‘rish ekanligini eslatadi. U keyinchalik, “Bahr al-asror” asari VI jildi to‘rtinchi ruknining xotimasidagi muallifning Hindiston va Sarandibga qilgan sayohati qismi tanqidiy matnini tadqiqot va ko‘rsatkichlar bilan birga nashr qiladi. Tanqidiy matnni tayyorlashda “Bahr al-asror”ning Londondagi India Office kutubxonasida saqlanayotgan №575 va O‘zR FA ShI AFda saqlanayotgan №1385 raqamli qo‘lyozma nusxalaridan olingan fotonusxalardan foydalanadi [Islam, 1980, p. 10]. R. Islom asarining tadqiqot qismi ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, olim mazkur qismda asar muallifi, asarning mazmuni, tuzilishi, bayon uslubi, matn tuzilishi, tabdil qilish jarayonidagi muammolar, Mahmud ibn Vali sayohatining taqvimi va sayohat qilgan shaharlarining tavsifiga batafsil to‘xtaladi [Islam, 1980].

“Bahr al-asror”ning Sharqiy Turkiston va Qozog‘iston tarixiga doir qismlarini A.K. Pishulina (1934–2021) o‘rgangan. Tadqiqotchi asar va uning muallifi, qo‘lyozma nusxalari, manbalari haqida ma’lumot berish bilan birga “Bahr al-asror” asari VI jildi ikkinchi va uchinchi ruknining ba’zi qismlari, jumladan, Abdurashidxonning (1510–1563; hukmronlik yillari 1533–1563) Qoshg‘ar va Mog‘ulistondagi hukmronligi, Abdulkarimxon (1529–1591; hukmronlik yillari 1560–1591) va undan so‘ng o‘g‘li Muhammadxonning (1538–1610; hukmronlik yillari 1591–1610) taxtga chiqishini, Shayboniylar (1501–1601) sulolasining Dashti Qipchoq boshqaruvida muhim ahamiyat kasb eta boshlashi, Abulxayrxonning hukmronligi va uning vafotidan so‘ng sulolaning zaiflashuvi hamda Muhammad Shayboniyxonning (1451–1510; hukmronlik yillari 1501–1510) siyosiy kurash maydoniga kirib kelishi va boshqalarni rus tiliga tarjima qiladi [Pishulina, 1969, s. 328–368] U XVI–XVII asr birinchi yarmi Markaziy Osiyo va Sharqiy Turkiston tarixi bilan shug‘ullanadigan mutaxassislar albatta Mahmud ibn Vali asariga murojaat qilishlari lozimligini ta’kidlaydi [Pishulina, 1983, s. 35].

T.I. Sultonov (tav. 1940), asosan, “Bahr al-asror” asari muallifi foydalangan manbalarga to‘xtalgan. U asar VI jildi uchinchi ruknining Temur Sulton (vaf. 1521) va Ubaydullaxonlarning (1486–1540; hukmronlik yillari 1533–1540) 1510-yilda Qosimxonga (1445–1518-21; hukmronlik yillari 1511/13–1518/21) qarshi yurishi qismini “Tarixiy Rashidiy” va “Zubdat al-asar” singari asarlardagi tegishli qismlar bilan solishtirib ko‘radi. Natijada, tadqiqotchi ushbu hodisa “Tarixi Rashidiy”da biroz boshqacharoq, “Zubdat al-asrar” va “Bahr al-asror” asarlarida esa bir-biriga ancha yaqin tasvirlanganining guvohi bo‘ladi [Sultanov, 1969, s. 32].

IX–XVIII asrlar Markaziy Osiyo va Hindiston o‘rtasidagi munosabatlar bo‘yicha tadqiqot olib borgan I.G. Nizomiddinov o‘z izlanishlarida “Bahr al-asror” muallifining Hindiston va Sarandibga qilgan sayohati tafsilotlariga to‘xtaladi. Tadqiqotchi Mahmud ibn Valining sayohat yo‘nalishiga, ayniqsa, Boburiy hukmdor Shoh Jahon (1592–1666; hukmronlik yillari 1628–1658) qabulida bo‘lganiga alohida e’tibor qaratadi. I.G. Nizomiddinovga ko‘ra, Shoh Jahon Mahmud ibn Valiga alohida ehtirom ko‘rsatib, unga libos, ot va fil sovg‘a qiladi [Nizamutdinov, 1969, s. 122–124].

XVI asr 30-yillari – XVII asr 60-yillarida Mo‘g‘ullar davlatining o‘zbeklar va qozoqlar bilan tashqi munosabatlari masalalarini atroflicha o‘rgangan O.F. Akimushkin (1929–2010), mazkur davr haqida hikoya qiluvchi yozma manbalar qatori “Bahr al-asror” asariga ham murojaat etadi. U muallif o‘z asarining sezilarli qismini Mo‘g‘ullar davlati tarixini yoritishga bag‘ishlaganini ta’kidlaydi [Akimushkin, 1970, s. 239]. Shoh Muhammad ibn Mirzo Fozil Churas (vaf. 1694) qalamiga mansub “Tarix” asarining tanqidiy matni va rus tiliga qilingan tarjimasini tadqiqot, izohlar va ko‘rsatkichlar bilan nashr qilgan ushbu tadqiqotchi “Bahr al-asror” va “Tarix” asarlarini o‘zaro solishtirib, ulardagi Chig‘atoy xonlarining hukmronlik tarixiga doir ma’lumotlar bir-biriga yaqin ekanligiga guvoh bo’ladi [Akimushkin, 2010, s. 102–104].

“Bahr al-asror” asarining Balx tarixiga doir qismini o‘rganishga katta hissa qo‘shgan olimlardan biri bu – Moyil Hiraviy (1922–1995) hisoblanadi. Tadqiqotchi “Bahr al-asror” asari VI jildi to‘rtinchi ruknining Balx tarixiga oid qismini (305a–374b) tabdil qilib, kitob bo‘yicha olib borgan izlanishlari natijasini ko‘rsatkichlar bilan nashr etadi [Herawi, 1981]. Ushbu tadqiqot katta ilmiy ahamiyatga ega bo‘lib, uning yuzaga kelishi natijasida “Bahr al-asror” asari matnini o‘qish va tushunish imkoniyati yanada oshdi. Tadqiqotchi asarning mazkur qismini nashrga tayyorlashda uning Londondagi India Office kutubxonasida saqlanayotgan №575 raqamli qo‘lyozma nusxasining mikrofilmi va fotonusxasi hamda Hofiz Nur Muhammad Ko‘hgadoiy kutubxonasida saqlanadigan

mashinkada terilgan nusxasidan foydalangan [Herawi, 1981, p. 3]. M. Hiraviy №575 raqamli qo‘lyozmaning tashqi va ichki belgilari, muallifning nazm va nasr uslublari haqida batafsil bayon qilgan. U Mahmud ibn Vali “Bahr al-asror”ning Balx tarixiga oid qismini yozishda Abu Bakr Abdulloh ibn Umar ibn Muhammad ibn Dovud al-Voiz Safiyiddin (1119–XII asr 90-yillari) tomonidan arab tilida yozilgan hamda Abdulloh ibn Muhammad ibn al-Qosim al-Husayniy (yash. XIII) tomonidan fors tiliga o‘girilgan “Fazoyili Balx” (“Balxning fazilatlari”) asariga tayangani, shu bilan birga o‘z kuzatishlari asosida qo‘lga kiritgan ma’lumotlaridan ham foydalanganini qayd etib o‘tgan [Herawi, 1981, p. 7–8].

“Bahr al-asror” asari VI jildi to‘rtinchi ruknida XVII asr Ashtarxoniylar saroyida katta nufuzga ega bo‘lgan amirlar biografiyasiga doir ma’lumotlarni amerikalik tadqiqotchi R.D.Mak Chesney (tav. 1944) o‘rganadi. Uning guvohlik berishicha, Mahmud ibn Vali “Bahr al-asror” asari VI jildi to‘rtinchi ruknining 124a–126b varaqlarida Buxoroda faoliyat yuritgan 11 nafar hamda 277b–286a va 290b–304b varaqlarida Balx saroyida xizmat qilgan 65 nafar, jami 76 nafar amir biografiyasiga doir qimmatli ma’lumotlarni keltirgan [McChesney, 1983, p. 34]. Tadqiqotchi asardagi turk-mo‘g‘ul qabilalari, o‘zbek urug‘lari va ayrim nufuzli amirlar tarjimai holiga doir ma’lumotlarni ingliz tiliga tarjima qiladi. Ashtarxoniylar sulolasi hukmronlik davri bo‘yicha ham izlanishlar olib borgan R.D. Mak Chesney ushbu sulola vakillaridan biri Boqi Muhammadxonning (1579–1605; hukmronlik yillari 1601–1605) ham faoliyatiga to‘xtalib o‘tadi. Xususan, izlanuvchi “Bahr al-asror” asari VI jildi to‘rtinchi ruknining 44b–76a varaqlarida Boqi Muhammadxonning Xuroson va Movarounnahrdagi faoliyatiga doir ma’lumotlardan foydalanadi [McChesney, 1980, p. 70–71]. Ashtarxoniylar davrida Balxdagi saroy majmuasi “davlatxona”ga to‘xtalgan tadqiqotchi ushbu majmua haqida “Bahr al-asror”ning Balx tarixi qismida kelgan ma’lumotlardan istifoda etadi. U Mahmud ibn Vali Nadr Muhammadxon tomonidan saroy bosh kutubxonachisi etib tayinlanganini eslatish asnosida, u o‘z asarini yozishda qo‘l ostidagi tarix, geografiya, ilohiyot, Qur’on tafsiri, tasavvufga oid ko‘plab yozma manbalardan foydalanganini ta’kidlaydi [McChesney, 2009, p. 108].

Mahmud ibn Valining “Bahr al-asror” asari I jildini tadqiq etishga pokistonlik olimlar, jumladan, H.M. Said, S.M. Al-Haq va A.Z. Xon katta hissa qo‘shishgan. Ular asar birinchi jildining dastlabki yuz varag‘i va oxirgi qismidan parchalarni kirish, tadqiqot, izohlar va ko‘rsatkichlar bilan nashr qilishgan [Said at al., 1984]. Ushbu tadqiqotchilarning izlanishlari natijasi o‘laroq bugungi tadqiqotchilar “Bahr al-asror” asari I jildining ancha murakkab matnini yanada yaxshiroq o‘qish va tushunish imkoniyatiga ega bo‘lishdi. Tadqiqot avvalida mualliflar Mahmud ibn Valining hayoti va faoliyati, ilmiy merosi, “Bahr al-asror” asari, tuzilishi, matn xususiyatlari, qo‘lyozma nusxalari va o‘rganilishi singari masalalarga to‘xtalganlar [Said at al., 1984, p. 9–57]. “Bahr al-asror” asari I jildining dastlabki yuz varag‘ini ayni damda O‘zR FA ShI AFda saqlanayotgan №2372 raqamli qo‘lyozma nusxadan olingan fotonusxa asosida nashrga tayyorlashgan. Tadqiqotchilar asar I jildini manbashunoslik nuqtai nazaridan ham keng miqyosda tahlil qilishgan. Ular Mahmud ibn Valining Hindiston va Sarandibga qilgan sayohatini ham e’tibordan chetda qoldirmasdan, mazkur qismni o‘rganishda Riyoz al-Islomning olib borgan tadqiqotlariga tayanganlar [Said at al., 1984, p. 26–31].

XVI asr oxiri – XVII birinchi yarmi Markaziy Osiyo tarixini tadqiq etgan g‘arb olimlaridan biri A.J. Burtun o‘z izlanishlarida Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligida ijtimiy-siyosiy va savdo-iqtisodiy hayot masalalariga atroflicha to‘xtalgan. Tadqiqotchi XVI asr oxirlarida Shayboniylar sulolasining hukmronligi barham topgach, Ashtarxoniylar sulolasi boshqaruvni o‘z qo‘liga olishi

hamda ushbu suloladan Buxoro xonligi taxtiga chiqqan ilk hukmdorlar haqida yozishda Ashtarxoniylar, Safaviylar (1501–1736) va Boburiylar (1526–1858) saroy tarixchilarining ma'lumotidan foydalanadi. U mazkur saroy tarixchilari qatori Mahmud ibn Valining "Bahr al-asror" asaridagi XVI asr oxiri – XVII asar boshlarida Buxoro xonligi taxtiga chiqqan Ashtarxoniy hukmdorlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganadi hamda zamondosh muarrixlarning kitoblari bilan solishtiradi [Burton, 1988, p. 482–488]. Ashtarxoniylardan Balx va Buxoroda hukmronlik qilgan Nadr Muhammadxon davrini ham o'rgangan A.J. Burton ushbu hukmdorning Boburiylar va Safaviylar davlati tarixchilari tomonidan ochko'z, qo'roq, noshukur hamda o'z akasini taxtdan ag'darishga uringan kimsa sifatida ta'riflanganiga guvoh bo'ladi. Tadqiqotchi markaziy osiyolik tarixchilar va rus elchilari kundaliklarini o'rganishi natijasida buning aksini ko'radi. Xususan, Nadr Muhammadxonning ota bir ona boshqa akasi Imomqulixon (1589–1644; hukmronlik yillari 1611–1642) bilan samimiy munosabati, Balxda uni alohida e'tibor bilan kutib olishi va ko'zi ko'r bo'lib, saltanat ishlarini bajarolmay qolganida Makka va Madina shahriga muqaddas haj amallarini ado etish maqsadida yuborgani qayd etilganining shohidi bo'ladi. A.J. Burton yuqoridagi voqealar haqida yozishda Nadr Muhammadxonning topshirig'iga binoan yozilgan "Bahr al-asror" asariga murojaat qiladi [Burton, 1988].

Hozirgi kungacha "Bahr al-asror" asarining eng ko'p o'rganilgan qismi bu – Mahmud ibn Valining Hindiston va Sarandibga sayohati hisoblanadi. M.A. Xon ham Mahmud ibn Valining Janubiy Hindiston bo'ylab qilgan sayohati hamda ushbu sayohat davomida borgan joylari va ko'rgan narsalari, jumladan, hindlarning ibodatxonalari haqidagi ma'lumotlarni o'rgangan. Tadqiqotchi asarning ushbu qismidan parchalarni ingliz tiliga tarjim qiladi [Khan, 1989]. U Janubiy Hindistonga safar qilgan Mahmud ibn Valining sayohat yo'nalishidan kelib chiqqan holda, "Bahr al-asror" asarining sayohat yo'nalishi aks etgan xaritani taqdim etadi [Khan, 1989, p. 269].

Oltin O'rda hukmdorlari tarixi, O'zbekxonning (1282–1342; hukmronlik yillari 1312–1342) islom dinini qabul qilishida muhim rol o'ynagan Sayyid Ato (yash. XIII–XIV) va Markaziy Osiyo xonliklarida uning avlodlariga berilgan "naqib" unvoni singari masalalarni D. Deviz tadqiq etgan. Tadqiqotchi naqib lavozimi sohiblarining XVI asr oxir – XVII asr birinchi yarimida xondan keyingi asosiy shaxs ekani va saroy rasmiy qabul marosimlarida hukmdorning chap tomonidan o'rin olishi singari masalalarni bayon qilishda Mahmud ibn Valining "Bahr al-asror" asariga murojaat qilgan [DeWeese, 1995, p. 612–634]. XVII birinchi yarmida Boburiylar Hindistoniga sayohat qilgan markaziy osiyolik sayyohlar hamda Markaziy Osiyo va Boburiylar davlati o'rtasidagi madaniy aloqalarni chuqur tahlil qilgan R. Foltz Mutribiy Samarqandiy (1558–XVII asr 30-yillari) va Mahmud ibn Vali misolida ikki mintaqa munosabatlariga to'xtaladi. Tadqiqotchi o'z izlanishlari natijasida Mutribiy Samarqandiyning sayohatdan ko'zlagan aniq maqsadi Boburiy hukmdor Jahongirdan (1569–1627; hukmronlik yillari 1605–1627) o'z oilasi duch kelgan moddiy qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun yetarli darajada moddiy mablag' olish ekanligini qayd etadi. Hatto hukmdorning iltifoti, alohida e'tibori va moddiy rag'batlantirishi Mutribiyni Hindistonga ko'proq muddat qolishga sabab bo'lmaydi. Natijada, u Samarqandga qaytib ketadi [Foltz, 1996, p. 369]. R. Foltz Mahmud ibn Vali bilan bog'liq vaziyatda buning aksiga guvoh bo'lganini ta'kidlaydi. Tadqiqotchiga ko'ra, Mahmudning sayohatdan ko'zlagan asosiy maqsadi g'arioddiy narsalarni tomosha qilish bo'lgan. Bu to'g'rida Mahmudning o'zi "Bahr al-asror" asarining Hindiston va Sarandibga sayohat qismida ta'kidlagan [Foltz, 1996, p. 369–370].

XX asr boshida “Bahr al-asror” yuzasidan izlanishlar olib borgan V.P. Yudin o‘z tadqiqotlarida asosan XV–XVII Qozog‘iston tarixiga doir masalalarga to‘xtalgan. Tadqiqotchi “Bahr al-asror”ning mazmuni, tuzilishi, qo‘lyozma nusxalari va asarda yoritilgan mavzular yuzasidan bir necha tahliliy maqolalar chop qilgan [Yudin, 2001]. Ashtarxoniylar davri tarixiga doir manbalarni tahlil qilgan tadqiqotchi J.M. Tulibayeva ushbu sulola tarixi bo‘yicha muhim ma’lumotlarni o‘z ichiga oluvchi “Bahr al-asror” asariga ham murojaat qiladi. Tadqiqotchi asar va uning muallifi haqida ma’lumot berish bilan birga undagi Jo‘jixon (1178–1227; hukmronlik yillari 1207–1227) avlodlari, To‘qay-Temuriylarning (Ashtarxoniylar) Dashti Qipchoqdagi faoliyati, Abulxayrxon boshchiligidagi O‘zbek ulusi, Ashtarxoniylarning Buxoro xonligi taxtini egallashi, mazkur sulola hukmronligi davrida qozoqlarning Movarounnahrga bosqini va qozoq xonlari bilan munosabatlari haqida keltirilgan ma’lumotlardan keng foydalanadi [Tulibayeva, 2003, s. 127–135].

A.K. Alekseyev ham Mahmud ibn Valining “Bahr al-asror” asarini chuqur o’rganishga katta hissa qo‘shgan tadqiqotchilardan biri hisoblanadi. Tadqiqotchi hatto nomzodlik dissertatsiyasini ham mazkur asar yuzasidan himoya qiladi [Alekseyev, 2004]. Dissertatsiyasi asosida tayyorlagan To‘qay-Temuriylar davlatining siyosiy tarixiga bag‘ishlangan monografiyasida “Bahr al-asror” asarining tuzilishi, mazmuni, manbalari, qo‘lyozma nusxalari, o‘rganilishi singari masalalarga batafsil to‘xtaladi [Alekseyev, 2006]. Tadqiqotchining “Bahr al-asror” asari tadqiqining turli jihatlariga bag’ishlangan qator ilmiy maqolalari va ma’ruzalari ham e’lon qilingan. A.K. Alekseyev o‘z maqolalaridan birida ancha bahsli mavzulardan biri bo‘lgan “Bahr al-asror” asarining yozilgan sananasini aniqlash masalasiga to‘xtalgan [Alekseyev, 2003]. Uning fikricha, bu asar 1634–1641-yillar oralig‘ida yozilgan. Tadqiqotchi “Bahr al-asror”ning qo‘lyozma nusxalari, jumladan, O’zR FA ShI AFda saqlanayotgan №7418 raqamli qo‘lyozmasi yuzasidan olib borgan izlanishlari natijasida oldingi tadqiqotchilardan farqli o‘laroq Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti Sankt-Peterburg filialida saqlanayotgan FV-258 raqamli fotonusxa O’zR FA ShI AFda saqlanayotgan №7418 raqamli qo‘lyozmadan emas, balki №1385 raqamli qo‘lyozmadan olingan nusxa ekanini isbotlab bergan [Alekseyev, 2003, s. 128–129]. Olim “Bahr al-asror” asaridagi Ashtarxoniylardan Buxoro taxtiga chiqqan dastlabki hukmdorlar, sulola davrida davlat boshqaruvi, feodal yer egaligi, saroy lavozimlari singari ma’lumotlarni ham o‘rgangan.

XVII–XVIII asr birinchi yarmi Buxoro xonligi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatini o‘rgangan A. Saidov izlanishlarida XVII asr birinchi yarmi Buxoro xonligi tarixi bo‘yicha muhim ma’lumotlarni o‘zida jamlagan birlamchi manba “Bahr al-asror” asariga ham murojaat qilgan [Saidov, 2007, s. 9–12]. Tadqiqotchi X.N. Farruxiyor bilan hamkorlikda olib borgan izlanishlarida Mahmud ibn Valining Buxoro xonligining Hindiston va Eron bilan munosabatlariga oid ma’lumotlarni o‘rgangan. Ular Buxoro xonligi o‘z tasarrufida bo‘lgan Balxni qo‘lga kiritish istagida bo‘lgan Boburiylar va Safaviylar davlati bilan diplomatik aloqalarni uzmagani hamda tomonlar o‘rtasida doimiy ravishda o‘zaro elchilar almashinuvini yo‘lga qo‘yilgani, shuningdek, mazkur elchilik missiyalari haqida ma’lumot berishda “Bahr al-asror” asariga murojaat qilganlar [Saidov & Farruxiyar, 2015, s. 34–41]. Mahmud ibn Valining XVI asr oxiri Movarounnahr tarixiga doir ma’lumotlarini tadqiq etgan A. Saidov, ularning mazkur davr bo‘yicha muhim ekanligini ta’kidlash asnosida keltirilgan materiallar Shayboniylar sulolasi boshqaruvi tarixi bilan bog‘liq ko‘plab bo‘shliqlarni to‘ldirishini e’tirof etadi [Saidov, 2017, s. 18].

Darhaqiqat, “Bahr al-asror” asarining Tojikistonda o‘rganilishiga katta hissa qo‘shgan olimlardan biri bu – F.A. Saidov sanaladi. U o‘zining asarga doir maqolalari bilan “Bahr al-asror”ning o‘rganilishiga munosib hissa qo‘shgan. Tadqiqotchi nomzodlik dissertatsiyasini Mahmud ibn Valining “Bahr al-asror” asaridagi XVI–XVII asr birinchi yarmi Movarounnahr va Xuroson tarixiy geografiyasiga oid ma’lumotlar asosida yaratadi [Saidov, 2022]. Dissertatsiyada Mahmud ibn Valining hayoti, ilmiy merosi, Hindiston va Sarandibga sayohati davomida duch kelgan g‘aroyibotlari, “Bahr al-asror” asari va uning tuzilishi, qo‘lyozma nusxalari, o‘rganilishi hamda asardagi Movarounnahr va Xuroson tarixiy geografiyasiga doir ma’lumotlarga batafsil to‘xtaladi. U asardagi XVII asr birinchi yarmida hukmronlik qilgan Ashtarxoniylar sulolasi vakillariga doir ma’lumotlarni ham o‘rganadi. F.A.Saidov ma’lumotlariga ko‘ra, ushbu sulolaning ilk hukmdorlari haqidagi ma’lumotlar yozma manbalarda deyarli uchramaydi. Mahmud ibn Valining “Bahr al-asror” asarida esa ular haqidagi tarqoq ma’lumotlarni uchratish mumkin [Saidov, 2019, s. 264]. Tadqiqotchi XVII asr ilk o‘n yilligida hukmronlik qilgan Ashtarxoniylar sulolasi vakillari, jumladan, Vali Muhammadxon (1579–1611; hukmronlik yillari 1606–1611) davrini o‘rganadi. U Vali Muhammadxon davri hokimiyatning zaiflashuvi, o‘zbek qabilalari orasida Din Muhammadxonning farzandlari Imomquli va Nadr Muhammadlarning mavqeining mustahkamlanishi, aka-ukalarning amakilariga qarshi kurashda g‘olib chiqishi, Vali Muhammadxonning Safaviylar hukmdori Shoh Abbos (1571–1629; hukmronlik yillari 1588–1629) yordamida Buxoroni qayta egallashi va nihoyat Buxoro xonligida Imomqulixon va Nadr Muhammadxonlarning mutloq hokimiyati qaror topishi haqida yozishda ushbu davr tarixchisi Mahmud ibn Valining “Bahr al-asror” asaridan foydalanadi [Saidov, 2020].

XVII asr boshlarida Buxoro xonligi bilan Safaviylar davlati o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rgangan A.Q. Musoyev Shayboniylar sulolasi barham topgandan so‘ng Safaviylarning Movarounnahrga yurishi tafsilotlari haqida yozishda birlamchi manba sifatida “Bahr al-asror” asariga murojaat qilgan. Tadqiqotchiga ko‘ra, Abdullaxon II vafotidan so‘ng (1598) Sabzavor, Hirot va Mashhad shaharlarini qo‘lga kiritgan Shoh Abbos Movarounnahrning kirish eshigi bo‘lgan Balx shahriga ko‘z olaytira boshlagan. Buxoro xonligi va Safaviylar o‘rtasida Balx uchun bo’lgan kurashda Ashtarxoniylarning qo‘li baland kelgan [Musoyev, 2022, s. 16–17]. “Bahr al-asror”dagi ma’lumotlarga ko‘ra, strategik jihatdan muhim hisoblanganligi sababdan bevosita Buxoro xonligi valiahd shahzodalari tomonidan boshqarilgan.

“Bahr al-asror” asari umumiy tarix, geografiya, mineralogiya va biografiya sohalaridan tashqari etnografiya, astrologiya, hayvonot va nabotot olamiga doir muhim ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Asardagi etnografik ma’lumotlarni o‘rganishga yosh tadqiqotchilardan biri A. Idiyev o‘z hissani qo‘shgan. Tadqiqotchiga ko‘ra, “Bahr al-asror” asarida Movarounnahr, Xuroson va Dashti Qipchoq hududlarida yashagan etnik guruhlar haqida ancha batafsil ma’lumotlar keltirilgan. Ularning xo‘jalik faoliyatiga oid axborotlar mintaqa va shaharlar tavsifi doirasida berilgani asarning o‘ziga xos ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. A. Idiyevning ta’kidlashicha, “Bahr al-asror” asarida keltirilgan Markaziy Osiyo hududiga oid etnik ma’lumotlarning aksari ilgari yozilgan asarlardan olingan bo‘lsa-da, muallif ularni o‘z davriga oid yangi ma’lumotlar bilan to‘ldirgan [Idiyev, 2021, b. 22]. Ashtarxoniylar tarixiga oid ba’zi manbalardagi etnik ma’lumotlar yuzasidan ham izlanishlar olib borgan ushbu tadqiqotchi bir necha asarlar qatori “Bahr al-asror” asaridagi ma’lumotlar asosida XVII asr boshlarida Markaziy Osiyoda keng tarqalgan etnik guruhlarning nomi va yashaydigan joylarini alohida jadval holida o‘z tadqiqotlarida keltiradi [Idiyev, 2021, b. 47].

“Bahr al-asror” asaridagi turli foydali qazilmalar, jumladan, metallarga oid ma’lumotlarni S.R. To‘rayeva o‘rgangan. Tadqiqotchi “Bahr al-asror” asarining ayni damda O‘zR FA ShI AFda saqlanayotgan №2372 raqamli qo‘lyozmasidagi foydali qazilma konlari, metallarning xususiyatlari va ayrim qimmatbaho metall konlari joylashgan mintaqalar haqidagi ma’lumotlardan foydalangan. S.R. To‘rayevaga ko‘ra, Mahmud ibn Vali o‘z asarida 290 ta foydali qazilma koni haqida ma’lumot bergan [Turaeva, 2023, p. 145]. Markaziy Osiyo mineralogiyasiga oid asarlarning qiyosiy tahlilini amalga oshirgan ushbu tadqiqotchi Mahmud ibn Valining asaridagi minerallarga oid qism, o‘zining hajmi, foydali ma’lumotlarining ko‘pligi va muhimligi bilan ajralib turishini ta’kidlaydi [Turaeva, 2023, p. 102]. Mahmud ibn Valining minerallarga oid qarashlari Abu Rayhon Beruniy (973–1048) va Muhammad ibn Mansur talqinlaridan (yash. XV) biroz farq qilgan. Mahmud ibn Vali “Bahr al-asror” asarining mineralogiyaga bag‘ishlangan qismini uchga ajratgan. Birinchisida metallar va turli birikmalar, ikkinchisida metallarning qimmatbaho toshlarga vazn jihatidan nisbati, uchinchi qismida esa 180 dan ortiq o‘rtacha qiymat va xususiyatga ega toshlarning ilmiy tavsifi keltirilgan. Mahmud ibn Vali o‘z asarining ma’danshunoslikka bag‘ishlangan qismida Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Zakariyo Qazviniy (1203–1283), Hamidulloh Qazviniy (1281–1350) va Muhammad ibn Mansur asarlaridan foydalangan. S.R. To‘raevaning fikricha, Mahmud ibn Vali metallarni, ayniqsa, oltin va kumushni tavsiflar ekan, ularning pul va tovar muomalasidagi roliga alohida e’tibor qaratgan [Turaeva, 2023, p. 102–103].

“Bahr al-asror” asari I jildidagi xalq tabobatiga doir ma’lumotlarni O. Po‘latov o‘rgangan. Tadqiqotchiga ko‘ra, “Bahr al-asror” muallifi turli hududlar aholisining turmush tarzi, uy-joylari va mashg‘ulotlarini tasvirlash bilan birga, ularning turli kasalliklarni davolash usullari va hududlarda o‘suvchi dorivor o‘simliklarga ham to‘xtalib o‘tgan. Suv havzalari haqida ma’lumot berish asnosida shifobaxsh buloqlar va ulardan foydalanish haqida ham yozgan [Pulatova, 2025, p. 78]. O. Po‘latovning guvohlik berishicha, Mahmud ibn Vali turli hududlarni tasvirlar ekan, u yerda yashovchi xalqlar tomonidan tabobatda qo‘llanilgan dorivor vositalar haqida, geografiyaga oid qismida esa turli hududlarda qo’llaniladigan dorivor giyohlar va ularning xususiyatlariga to‘xtalganini, shuningdek, ba’zi hududlarning sanitariya holati va ayrim mintaqalarda keng tarqalgan kasalliklar haqida ham ma’lumot bergan [Pulatova, 2025, p. 80–82].

XULOSA

Mahmud ibn Valining “Bahr al-asror” asarini keng miqyosda o‘rganish XIX asrdan boshlanib, hozirgi kungacha davom etmoqda. O‘tgan davr mobaynida asarning tuzilishi, mazmuni, manbalari, qo‘lyozma nusxalari va qamrab olgan mavzular yuzasidan qator maqola, monografiya, risola va ilmiy ishlar nashr qilindi. Ilgarigi tadqiqotchilar, asosan, asarning XIII–XVII asrlar Markaziy Osiyo, Qozog‘iston va Sharqiy Turkiston tarixi, geografiyasiga doir qismlarini atroflicha o‘rganishgan. “Bahr al-asror”dagi davlat amaldorlar va siyosiy arboblar biografiyasi hamda asardagi foydali qazilmalar, o‘simliklar va tibbiyotga oid ma’lumotlar qisman tadqiq etilgan. Shu bilan birga, mazkur yo‘nalishlarda o‘z javobini kutib yotgan mavzular hali juda ko‘p. Mahmud ibn Valining asaridagi tadqiqotchilar e’tiboridan chetda qolgan mavzular qatorida ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy hayot hamda XVI asr oxiri – XVII asr boshlarida Movarounnahr va Xurosonda yashab ijod qilgan din peshvolari, ulamolar, tasavvuf namoyondalari, shoirlar va boshqalarga doir biografik ma’lumotlarni keltirib o‘tish mumkin. Bu ma’lumotlarni o‘rganish tadqiqotchilardan ancha kuch, mehnat va g‘ayrat talab qiladi. Zero, eslatib o‘tilgan qismlardagi ko’plab ma’lumotlar boshqa asarlarda deyarli uchramaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduraimov, M.A. (1966). Ocherk agrarnix otnosheniy v Buxarskom xanstve v XVI – pervoy polovine XIX veka (T. 1). Tashkent: Fan. [Abduraimov, M.A. (1966). An Essay on Agrarian Relations in the Bukhara Khanate in the 16th – First Half of the 19th Century (Vol. 1). Tashkent: Fan. (in Russian)].
2. Abduraimov, M.A. (1974). Koshbegi, a ne kushbegi (K istorii ustanovleniya vlasti koshbegi v Buxarskom xanstve). *Obshestvennie nauki v Uzbekistane*, (11), 54–60. Tashkent: Fan. [Abduraimov, M.A. (1974). Koshbegi, not Kushbegi (On the history of establishing the authority of the Koshbegi in the Bukhara Khanate). *Obshchestvenne nauki v Uzbekistane (Social Sciences in Uzbekistan)*, (11), 54–60. Tashkent: Fan. (in Russian)].
3. Ahmedov, B.A. (1994). Tarixdan saboqlar. Tashkent: O‘qituvchi. [Ahmedov, B.A. (1994). *Lessons from History*. Tashkent: Oqituvchi. (in Uzbek)].
4. Ahmedov, B.A. (1966). *Mahmud ibn Vali. T*ashkent: Fan. [Ahmedov, B.A. (1966). *Mahmud ibn Vali*. Tashkent: Fan. (in Uzbek)].
5. Akhmedov, B.A. (1991). The Bahr al-Asrar of Mahmud b. Vali and it’s study in the USSR and elsewhere. *Journal of Asian History*, 2, 163–180.
6. Akimushkin, O.F. (1970). K voprosu o vneshnepoliticheskix svyazyax Mogolskogo gosudarstva s uzbekami i kazaxami v 30-x godax XVI v. – 60-x godax XVII v. *Palestinskiy sbornik*, 21(84), 233–248. Leningrad: Nauka. [Akimushkin, O.F. (1970). On the question of foreign policy relations of the Moghul State with the Uzbeks and Kazakhs from the 1530s to the 1660s. *Palestinskii sbornik (Palestinian Collection)*, 21(84), 233–248. Leningrad: Nauka. (in Russian)].
7. Alekseyev, A.K. (2003). K voprosu o «rukopisi Djurabeka» sochineniya Maxmuda b. Vali «Baxr al-asrar fi manakib al-axyar» («More tayn otnositelno doblestey blagorodnix). *Vestnik SPbGU (Seriya 2)*, (10), 128–130. SPb. [Alekseev, A.K. (2003). On the question of the “Jurabek Manuscript” of Mahmud b. Vali’s work “Bahr al-asrar fi manaqib al-akhyar” (“The Sea of Secrets Regarding the Virtues of the Noble”). *Vestnik SPbGU (Series 2)*, (10), 128–130. St. Petersburg. (in Russian)].
8. Alekseyev, A.K. (2003). K voprosu o datirovke «Baxr al-asrar fi manakib al-axyar» Maxmuda b. Vali. V *Materiali Mejdunarodnoy nauchnoy konferensii «300 let iranistike v Sankt-Peterburge»* (ss. 46–48). SPb. [Alekseev, A.K. (2003). On the question of dating Mahmoud b. Vali’s “Bahr al-asrar fi manaqib al-akhyar”. In *Materialy Mezhdunarodnoi nauchnoi konferentsii “300 let iranistike v Sankt-Peterburge” (Proceedings of the International Scientific Conference “300 Years of Iranian Studies in St. Petersburg”)* (pp. 46–48). St. Petersburg. (in Russian)].
9. Alekseyev, A.K. (2004). Srednyaya Aziya pri ashtarxanidax v XVII–XVIII vv. (po persoyazichnomu istoricheskomu sochineniyu «Baxr al-asrar») [*Kandidatskaya dissertatsiya, Sankt-Peterburgskiy gosudarstvenniy universitet*]. SPb. [Alekseev, A.K. (2004). *Central Asia under the Ashtarkhanids in the 17th–18th Centuries (Based on the Persian-language Historical Work “Bahr al-Asrar”)* [Doctoral dissertation, Saint Petersburg State University]. St. Petersburg. (in Russian)].
10. Alekseyev, A.K. (2006). Politicheskaya istoriya Tukay-Timuridov: Po materialam persidskogo istoricheskogo sochineniya Baxr al-asrar. SPb.: Izdatelstvo Sankt-Peterburgskogo universiteta.

[Alekseev, A.K. (2006). *Political History of the Tuqay-Timurids: Based on the Materials of the Persian Historical Work Bahr al-Asrar*. St. Petersburg: Saint Petersburg University Press. (in Russian)].

11. Axmedov, B.A. (1965). *Gosudarstvo kochevix uzbekov.* Moskva: Nauka. [Ahmedov, B.A. (1965). *The State of nomadic Uzbeks*. Moscow: Nauka. (in Russian)].
12. Axmedov, B.A. (1982). *Istoriya Balxa (XVI-pervaya polovina XVIII v.).* Tashkent: Fan. [Ahmedov, B.A. (1982). *History of Balkh (16th – First Half of the 18th Century)*. Tashkent: Fan. (in Russian)].
13. Axmedov, B.A. (1988). Baxr al-asrar fi manakib al-axyar Maxmuda ibn Vali. *V Materiali po istorii Sredney i Sentralnoy Azii X–XI vv.* Tashkent: Fan. [Ahmedov, B.A. (1988). Mahmud ibn Vali's *Bahr al-asrar fi manaqib al-akhyar*. In *Materialy po istorii Srednei i Tsentralnoi Azii X–XIX vv. (Materials on the History of Middle and Central Asia from the 10th to the 19th Centuries)*. Tashkent: Fan. (in Russian)].
14. Bartold, V.V. (1904). Otchyot o komandirovke v Turkestan. *ZVORAO*, *15*. SPb.: Tip. Imp. AN. [Bartold, V.V. (1904). Report on a mission to Turkestan. *Memoirs of the Oriental Department of the Russian Archaeological Society*, 15. St. Petersburg: Printing House of the Imperial Academy of Sciences. (in Russian)].
15. Bartold, V.V. (1965). K istorii Xorezma v XVI veke. V *Sochineniya* (T. 3, s. 257–259). Moskva: Nauka. [Bartold, V.V. (1965). On the history of Khwarazm in the 16th century. In *Sochineniya (Collected Works)* (Vol. 3, pp. 257–259). Moscow: Nauka. (in Russian)].
16. Bartold, V.V. (1974). Seremonial pri dvore uzbekskix xanov v XVII v. V *Sochineniya* (T. 2, Ch. 2, s. 388–399). Moskva: Nauka. [Bartold, V.V. (1974). Ceremonial at the court of the Uzbek khans in the 17th century. In *Sochineniya (Collected Works)* (Vol. 2, Part 2, pp. 388–399). Moscow: Nauka. (in Russian)].
17. Burton, J.A. (1988). Nadir Muhammad Khan Ruler of Bukhara (1641–1645) and Balkh (1645–1651). *Central Asiatic Journal*, *32*(1/2), 19–33. Weisbaden.
18. Burton, J.A. (1988). Who were the first Ashtarkhanid rulers of Bukhara? *Bulletin of the School of Oriental and African Studies*, 51(3), 482–488. London.
19. DeWeese, D. (1995). The descendants of Sayyid Ata and the rank of naqib in Central Asia. *Journal of the American Oriental Society*, 115(4), 612–634. Michigan.
20. Ethe, H. (1903). *Persian manuscripts in the library of the India office* (Vol. 1). Oxford: Oxford University Press.
21. Foltz, R. (1996). Two seventeenth-century Central Asian travellers to Mughal India. *Journal of the Royal Asiatic Society (Third Series)*, 6(3), 367–377. London.
22. Gafurov, B.G. (1966). The Bahr al-Asrar. Cultural contacts between Central Asia and Pakistan. *Journal of the Pakistan Historical Society*, 14(2), 98–103. Karachi.
23. Idiyev, A. (2021). Ashtarxoniylar davri tarixiga oid ba'zi manbalardagi etnik ma'lumotlar xususida. *Islom tafakkuri*, (4), 43–48. Toshkent. [Idiev, A. (2021). On ethnic data in some sources related to the history of the Ashtarkhanid period. *Islom tafakkuri (Islamic Thought)*, (4), 43–48. Tashkent. (in Uzbek)].

24. Idiyev, A. (2021). Bahr al-asror asaridagi etnik ma'lumotlarga oid mulohazalar. *Meros*, (1), 17–27. Toshkent. [Idiev, A. (2021). Reflections on ethnic data in the work "Bahr al-Asrar". *Meros (Heritage)*, (1), 17–27. Tashkent. (in Uzbek)].
25. Islam, R. (1966). The Bahr al-Asrar: A note on the travel portion. *Journal of the Pakistan Historical Society*, 14(2), 93–97. Karachi.
26. Islam, R. (1970). Indo-Persian relations. Lahore: Ripon Printing Press.
27. Khan, M.A. (1989). A Central Asian traveller's account of South India. *Proceedings of the Indian History Congress*, *50*(Golden Jubilee Session), 267–279. Delhi.
28. Mahmud b. Amir Wali Balkhi. (1980). The Bahr ul-Asrar travelogue (R. Islam, Ed.). Karachi: Institute of Central and West Asian Studies.
29. Mahmud b. Amir Wali Balkhi. (1981). *Bahrul-asrar: A chapter of Balkh* (M. Herawi, Ed.). *Afghanistan: Academy Science of Afghanistan.*
30. Mahmud b. Amir Wali Balkhi. (1984). *Bahr al-asrar fi ma'rifat al-akhyar: Vol. 1. Part 1* (H.M. Said et al., Eds.). Karachi: Pakistan Historical Society.
31. Maxmud ibn Vali. (1977). *More tayn otnositelno doblestey blagorodnix (geografiya)* (B.A. Axmedov, Per. i komm.). Tashkent: Fan. [Mahmud ibn Vali. (1977). *The Sea of Secrets Regarding the Virtues of the Noble (Geography)* (B.A. Ahmedov, Trans. & Comm.). Tashkent: Fan. (in Russian)].
32. McChesney, R.D. (1980). The reforms of Baqi Muhammad Khan. *Central Asiatic Journal*, 24(1/2), 69–84. Weisbaden.
33. McChesney, R.D. (1983). The amirs of Muslim Central Asia in the 17th century. *Journal of the Economic and Social History of the Orient*, *26*(1), 33–70.
34. McChesney, R.D. (2009). An early seventeenth-century palace complex (Davlatkhana) in Balkh. *Muqarnas: An Annual on the Visual Culture of the Islamic World*, 26, 95–118. Leiden, Boston.
35. Musoyev, A. Q. (2022). Lashkarkashii Safaviho ba Movarounnahr dar ibtidoi asri XVII. *Muarrix*, *29*(1), 16–20. Dushanbe. [Musoev, A.Q. (2022). The Safavid invasion of Transoxiana at the beginning of the 17th century. *The Historian*, 29(1), 16–20. Dushanbe. (in Tajik)].
36. Nizamutdinov, I.G. (1969). Iz istorii Sredneaziatsko-indiyskix otnosheniy (IX–XVIII vv.). Tashkent: Uzbekistan. [Nizamutdinov, I.G. (1969). From the History of Central Asian-Indian Relations (9th–18th Centuries). Tashkent: Uzbekistan. (in Russian)].
37. Pishulina, K.A. (1983). «Baxr al-asrar» Maxmuda ibn Vali kak istochnik po sotsialno-ekonomicheskoy istorii Vostochnogo Turkestana v XVI–XVII vv. *V Kazaxstan, Srednyaya i Sentralnaya Aziya v XVI–XVIII vv.* (ss. 34–88). Almati: Nauka. [Pishchulina, K.A. (1983). Mahmud ibn Vali's "Bahr al-Asrar" as a source on the socio-economic history of Eastern Turkestan in the 16th–17th centuries. In *Kazakhstan, Srednyaya i Tsentralnaya Aziya v XVI–XVIII vv. (Kazakhstan, Middle and Central Asia in the 16th–18th Centuries)* (pp. 34–88). Almaty: Nauka. (in Russian)].
38. Pulatov, O.O. (2025). Information on folk medicine in Bahr al-Asrar. *Proceedings of the International Conference on Medicine & Agriculture*, 78–82. Tokio.
39. Saidov, A. (2007). Politicheskaya istoriya Buxarskogo xanstva v XVII – pervoy polovine XVIII vv. Dushanbe: Irfon. [Saidov, A. (2007). *Political History of the Bukhara Khanate in the 17th – First Half of the 18th Centuries*. Dushanbe: Irfon. (in Russian)].

40. Saidov, A. (2017). Otrajeniye istorii Maverannaxra konsa XVI v. v sochinenii Maxmuda ibn Vali «Baxr al-asrar fi manakib al-axyar». *Vestnik TNU*, *3*(3), 15–19. Dushanbe. [Saidov, A. (2017). Reflection of the history of Mavarannahr at the end of the 16th century in Mahmud ibn Vali's work "Bahr al-Asrar fi Manaqib al-Akhyar". *Vestnik TNU (Bulletin of the Tajik National University)*, 3(3), 15–19. Dushanbe. (in Russian)].
41. Saidov, A., & Farroxyar, X. N. (2015). Svedeniya Maxmuda ibn Vali ob otnosheniyax Buxarskogo xanstva s Indiyey i Iranom. *Istorik*, (4), 34–40. Dushanbe. [Saidov, A., & Farrokhyar, Kh.N. (2015). Mahmud ibn Vali's accounts of the relations of the Bukhara Khanate with India and Iran. *The Historian*, (4), 34–40. Dushanbe.
42. Saidov, F.A. (2019). Ma'lumoti Mahmud ibni Vali dar borai ta'rixi Ashtarxoniho dar nimai avvali asri XVII. *Payomi donishgohi omŷzgorū*, *81*(4), 263–268. Dushanbe. [Saidov, F.A. (2019). Mahmud ibn Vali's accounts regarding the history of the Ashtarkhanids in the first half of the 17th century. *Bulletin of the Pedagogical University*, 81(4), 263–268. Dushanbe. (in Tajik)].
43. Saidov, F.A. (2020). Ma'lumoti ma'xazhoi xatti oid ba hukumati Valimuhammadxoni Ashtarxonū. *Muarrix*, *24*(4), 58–63. Dushanbe. [Saidov, F.A. (2020). Written source data regarding the government of Vali Muhammad Khan the Ashtarkhanid. *The Historian*, 24(4), 58–63. Dushanbe. (in Tajik)].
44. Saidov, F.A. (2022). Istoriko-geograficheskiye svedeniya Maxmuda ibn Vali o Maverannaxre i Xorasane konsa XVI – pervoy polovini XVII vv. [*Kandidatskaya dissertatsiya, Tadjikskiy natsionalniy universitet*]. Dushanbe. [Saidov, F.A. (2022). *Historical-geographical data of Mahmud ibn Vali on Mavarannahr and Khorasan from the late 16th to the first half of the 17th centuries* [Doctoral dissertation, Tajik National University]. Dushanbe. (in Russian)].
45. Semyonov, A.A. (1948). Buxarskiy traktat o chinax i zvaniyax i ob obyazannostyax nositeley ix v srednevekovoy Buxare. *Sovetskoye vostokovedeniye*, *5*, 137–153. M., L. [Semyonov, A.A. (1948).
A Bukharian treatise on ranks, titles, and the duties of their holders in medieval Bukhara. *Sovetskoe vostokovedenie (Soviet Oriental Studies)*, 5, 137–153. M., L. (in Russian)].
46. Semyonov, A.A. (Red.). (1960). Sobraniye vostochnix rukopisey Akademii Nauk Uzbekskoy SSR (T. 5). Tashkent: Izdatelstvo AN UzSSR. [Semyonov, A.A. (Ed.). (1960). *Collection of Oriental Manuscripts of the Academy of Sciences of the Uzbek SSR* (Vol. 5). Tashkent: Publishing House of the Academy of Sciences of the UzSSR. (in Russian)].
47. Shax-Maxmud Churas. (2010). Xronika (O.F. Akimushkin, perevod i kommentarii, 2-ye izd.). SPb.: Peterburgskoye lingvisticheskoye obshestvo. [Shah-Mahmud Churas. (2010). *The Chronicle* (O.F. Akimushkin, Critical Text, Trans. & Comm., 2nd ed.). St. Petersburg: St. Petersburg Linguistic Society. (in Russian)].
48. Sultanov, I.T. (1969). O nekotorix istochnikax «Baxr al-Asrar». V *Pismennie pamyatniki i problemi istorii kulturi narodov Vostoka: Kratkoye soderjaniye dokladov V yejegodnoy nauchnoy sessii LO IV AN* (ss. 31–33). Leningrad. [Sultanov, I.T. (1969). On some sources of "Bahr al-Asrar". In *Written Monuments and Problems of the History of Culture of the Peoples of the East: Abstracts of Papers of the 5th Annual Scientific Session of the Leningrad Branch of the Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences* (pp. 31–33). Leningrad. (in Russian)].

49. Tulibayeva, J.M. (2003). «Baxr al-asrar fi manakib al-axyar» kak istoricheskiy istochnik. *Vestnik KazNU (Seriya Vostokovedeniya)*, *25*(4), 127–135. Almati. [Tulibaeva, Zh. M. (2003). "Bahr al-asrar fi manaqib al-akhyar" as a historical source. *Vestnik KazNU (Oriental Studies Series)*, 25(4), 127–135. Almaty. (in Russian)].
50. Turaeva, S.R. (2023). Bahr al-asrar by Mahmud ibn Wali is a work that provides information about the famous metal mines and metallurgy in the 17th century. *International Conference on Multidisciplinary Science*, 1(5), 145–148. New Delhi.
51. Turaeva, S.R. (2023). Comparative analysis of works on mineralogy of Central Asia. *International Journal of Social Science & Interdisciplinary Research*, *12*(01), 98–106. New Delhi.
52. Umnyakov, I.I. (1930). Abdulla-name Xafiz-i Tanisha i yego issledovateli. *Zapiski Kollegii vostokovedov pri Aziatskom muzeye AN SSSR*, *5*, 307–328. Leningrad: Izd. AN. [Umnyakov, I.I. (1930). The "Abdulla-name" of Hafiz-i Tanish and its researchers. *Memoirs of the Board of Orientalists at the Asiatic Museum of the Academy of Sciences of the USSR*, 5, 307–328. Leningrad: Publishing House of the Academy of Sciences. (in Russian)].
53. Validov, A.Z. (1915). Vostochnie rukopisi v Ferganskoy oblasti. *ZVORAO*, *22*, 303–320. SPb.: Tip. Imp. AN. [Validov, A.Z. (1915). Oriental manuscripts in the Fergana Oblast. *ZVORAO (Memoirs of the Oriental Department of the Imperial Russian Archaeological Society)*, 22, 303–320. St. Petersburg: Printing House of the Imperial Academy of Sciences. (in Russian)].
54. Validov, A.Z. (1916). O sobraniyax rukopisey v Buxarskom xanstve (Otchyot o komandirovke). *ZVORAO*, *23*, 245–262. SPb.: Tip. Imp. AN. [Validov, A.Z. (1916). On manuscript collections in the Bukhara Khanate (Report on a mission). *ZVORAO (Memoirs of the Oriental Department of the Imperial Russian Archaeological Society)*, 23, 245–262. St. Petersburg: Printing House of the Imperial Academy of Sciences. (in Russian)].
55. Yudin, V.P. (2001). Baxr al-asrar fi manakib al-axyar. *V Pismennie istochniki po istorii i kulture Kazaxstana i Sentralnoy Azii XIII–XVIII vv. (biobibliograficheskiye obzori)* (ss. 240–255). Almati: Dayk-Press. [Yudin, V.P. (2001). Bahr al-asrar fi manaqib al-akhyar. In *Written Sources on the History and Culture of Kazakhstan and Central Asia in the 13th–18th Centuries (Bio-bibliographical Surveys)* (pp. 240–255). Almaty: Dayk-Press. (in Russian)].